

ONA TILI DARSLARIDA QIZIQARLI O'YINLAR ORQALI O'QUVCHILARNING FIKRLASH QOBILIYATINI VA OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISH

Jabbarova Ra'no Begimqulovna

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 22- umumta'lim maktabining ona tili va
adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ona tili darslarida qiziqarli o'yinlar orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini va og'zaki nutqini o'stirish bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Ona tili darslarida qo'llaniladigan turli hil metodlardan namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlari: "Aqliy hujum", "Klaster", 3x4 texnologiyasi, Breyning, "Charxpalak" texnologiyasi, fikrlash qobiliyati, og'zaki nutq.

Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan davrda bolalarning aqliy rivojlanish tezligi ham o'sib bormoqda. Natijada ta'limning umumiy darajasi ham oshayotgani shubhasiz. Albatta, o'quvchilarni darsga, o'qishga qiziqtirish yo'lida o'zimiz toliqib qolmasligimiz uchun avvalo, o'z kasbimizni sevishimiz, bolalarga mehr qo'yishimiz, ularni o'z farzandimizdek ko'ra olishimiz, yonib turgan ko'zlaridagi mehrni va bilimga chanqoqligini so'ndirib qo'ymasligimiz, asosiysi beg'uborliklarini saqlab qolishimiz kerak. Barcha fanlar kabi ona tili darslarini ham turli didaktik o'yinlar va metodlar orqali tashkillashtira olishimiz kerak. Albatta har bir darslarda qo'llaniladigan metodlar va tashkillashtirilgan didaktik o'yinlarimiz orqali o'tilgan mavzularni mustahkamlashimiz, yangi mavzuni tushuntirishimiz va o'quvchilar nutqini rivojlantirib, mustaqil fikrlash doiralarini kengaytirib borishimiz mumkin.

Ona tili darslarida "Aqliy hujum", "Savol-javob", "Baliq skleti", "Ven diagrammasi", "Klaster", "Idrok xaritasi", "Nima uchun?", "Assesment", "Pianino" kabi metodlar hamda "O'qib ko'rchi", "Davom ettir", "Sirli so'z", "Zanjir", "O'yin-topishmoq", "Bu meniki", "Tez javob", "Rebus", "Krossvord" kabi o'yinlardan foydalanamiz. Bu metod hamda o'yinlar o'quvchilarning nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirish, o'z fikr mulohazalarini erkin, mustaqil bayon eta olishlari uchun yordam beradi.



Quyida ish faoliyatim davomida qo'llab kelayotgan interfaol metodlardan namunalar keltiraman va ularni dars jarayonida qo'llashning ahamiyati haqida fikr bildirib o'taman.

“Alpinistlar” metodi.

Ushbu metoddan ko'zlangan asosiy maqsad: o'quvchining mavzu yuzasidan qiyinchilik darajasiga ko'ra tabaqalashtirilgan savol va topshiriqlarga javob berishi orqali tog' cho'qqisiga chiqishiga yordam berish. Tog' cho'qqisini zabr etish orqali o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonch va o'z ustida ishlashga yanada ishtiyoq paydo bo'lishiga yordam beradi. Bunda o'qituvchi tog' chizmasini doskaga ilgan holda quyidan yuqoriga qarab oddiydan murakkabga tamoyili asosida mavzu yuzasidan savol va topshiriqlarni belgilab beradi. Bunda quyi qismda qiyinlik darajasi biroz soddaroq, o'rta qismida o'rta darajadagi savollar, tog'ning yuqori qismida esa murakkablik darajasi qiyin bo'lgan savollar bilan o'quvchiga yuzlanadi. Savollarga to'g'ri javob berish orqali o'quvchi keyingi bosqichga o'tadi va tog'ning barcha qismidagi topshiriqlarni bajargan o'quvchi “Alpinist” maqomiga erishadi va tog' cho'qqisini zabt etgan hisoblanadi.

“Klaster” metodi asosida tarmoqlash: Har bir guruhga “Fe'l” so'zi berilib, klaster usulida tarmoqlash beriladi.

Breyn-ring.

Bu o'yinda har birida 5– 6 nafardan o'quvchi qatnashgan jamoalar soni 2 tadan 5 tagacha bo'lishi mumkin. O'qituvchi har bir guruhga qisqa javobli savollar beradi. Agar o'quvchilardan biri birinchi bo'lib to'g'ri javob bersa, qolgan barcha savollar faqat shu o'quvchiga beriladi va har bir to'g'ri javob uchun olingan ball to'planib boradi. Agar to'plangan ballni vaqtida o'z jamoasi hisobiga tushirib turmasa va o'yinni to'xtatmay, o'yin davomida noto'g'ri javob berib qo'ysa, o'sha o'quvchi to'playotgan barcha ballar kuyib ketadi. Demak, o'quvchi o'zi istagan paytda o'yinni to'xtatishi va to'plagan ballni jamoa hisobiga tushirishi kerak. Qolgan savollarga endi boshqa o'quvchilar javob berishi lozim va ular ham o'z jamoalari hisobiga ball to'plash imkoniga ega bo'ladilar.

Ushbu metodlardan fodalanib ona tili darslarini samarali tashkil qilib yaxshi natijalarga erishish mumkin.

“Charxpalak” texnologiyasi. Bu usul o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash,



yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir.

Texnologiyaning maqsadi. Texnologiya o'quv mashg'ulotining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetning biron bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini baholash, oraliq va yakuniy nazorat o'tish uchun mo'ljallangan.

“Charxpalak” texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'quvchilar sharoitga qarab guruhlariga ajratiladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
- belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining ramziy belgisini qo'yib ushbu tarqatmani keying guruhga “charxpalak aylanmasi” yo'nalishida almashtiradilar;
- boshqa guruh a'zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o'zgartirishlar kiritadilar;
- materialning oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh o'zi ilk bor to'ldirgan tarqatmani o'z ramziy belgisi asosida tanlab oladi;
- o'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, to'g'ri javob aytib o'tiladi;
- har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o'zlarini baholaydilar.

“Charxpalak” texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun o'quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin.

Vazifa uchun zarur bo'lgan tarqatma materialni ilovada keltiramiz.

Mavzu: O'zbek maqol va matallari.

Vazifa. Berilgan maqol va matallarning mazmunini aniqlang va belgilang.

Maqol va matallar	Mehnat haqida	Vatan haqida	Tarbiya haqida	Do'stlik haqida	Ilm olish haqida
Qush uyasida ko'rganini qiladi			*		
Har gulga o'z butasi aziz		*			
Do'stlik boylikdan afzal				*	
Ustoz bilimli shogird ilimli					*
Mehnatmehnatning tagi rohat	*				
O'z yurtning o'lan to'shaging		*			
Odobli bola elga manzur			*		



Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ona tili darslarini samarali tashkil etish, darslarni amaliy tarzda o'tish turli xil metodlardan foydalanish hozirgi davr o'qituvchisining asosiy maqsadi bo'lishi kerak. Maqsad sari intilgan o'qituvchining dasrida doim samara bo'ladi. Interfaol metodlardan foydalanish asosida o'quvchilarda faollikni oshirish bilan bir qatorda mavzu yuzasidan kompetensiyalarni shakllantirish imkoniga ham ega bo'lamiz.

Komil inson tarbiyalashda maktab ta'limida yetakchi fan hisoblangan ona tili fanining o'rni beqiyosdir. Ona tili ta'limining asosiy talablariga ko'ra, o'quvchi mavzu bo'yicha belgilangan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash uchun darslikdagi mashq va topshiriqlarni mustaqil, ijodiy fikrlash orqali bajarish kerak. Shuningdek, berilgan topshiriqlarni bajarishda kuzatish, umumiylikni topish, farqlarni aniqlash, qiyoslash, tasniflash, xulosa chiqarish, amaliyotda qo'llash kabi amallarni bajarish kerak.

Yuqorida qo'llanilgan usullar o'quvchilarning intellektual faollik, qiziqishlari hamda moyilliklaridan kelib chiqqan holda bilimlarning ortishi va ko'nikmalarining malakaga aylana borishini ta'minlaydi. Ta'lim sifat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda ta'lim- tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma'naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.J. Ishmuhamedov Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T- 2006.
2. N. Azizqo'jayeva "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar" T. : 2011
3. Mahmudov N. M Odilov Y.R Ziyodullayeva G.Sh Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
4. Hamroyev M.A. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi.-T., 2011

